



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 27-mart, payshanba,
37 (24.063)-son

O'zbek xalq
maqoli

Ishi borga bir
kun hayit, ishi
yo'qqa har
kun hayit

Zarafshon

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

MUBORAK RAMAZON HAYITINI NISHONLASH TO'G'RISIDA

Yangi O'zbekistonda "Inson qadri uchun, inson baxti uchun" degan ezgu g'oya asosida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar tufayli xalqimiz farovonligini oshirish, ko'pmillatli jamiyatimizda tinchlik-osoyshtalik, do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash borasidagi ishlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Bularning barchasi bag'rikenglik, saxovat va shukronalik timsoli bo'lgan muborak Ramazon oyini mamlakatimizda tinch-totuv, fayzli va shukuhli muhitda o'tkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buni el-yurtimiz o'rtasida insonparvarlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibat, kam ta'minlangan va ehtiyojmand shaxslar, yordamga muhtoj oilalarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish kabi yuksak insoniy fazilatlar ayni kunlarda yanada yaqqol namoyon bo'layotgani ham tasdiqlaydi.

Ulug' ayyom — muqaddas Ramazon hayitini ana shunday xayrli ishlarni izchil davom ettirgan holda har tomonlama munosib kutib olish, o'tkazish va uning mohiyatida mujassam bo'lgan ezgu qadriyat va an'analarni keng targ'ib etish maqsadida qaror qilaman:

1. Joriy yilda Ramazon hayitining birinchi kuni 30-mart — yakshanba kuniga to'g'ri kelishi haqidagi O'zbekiston musulmonlari idorasining axboroti ma'lumot uchun qabul qilinib, mamlakatimizda 2025-yil 30-mart kuni Ramazon hayiti bayrami sifatida keng nishonlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 208-moddasiga muvofiq:

(a) ishlanmaydigan bayram kuni hisoblanuvchi Ramazon hayitining birinchi kuni 2025-yilda yakshanba — dam olish kuniga to'g'ri kelishi munosabati bilan ushbu dam olish kuni 31-mart — dushanba kuniga ko'chirilishi;

(b) bunda ishlab chiqarish-texnik va tashkiliy sharoitlar (mavjud uzluksiz ishlab chiqarish, aholiga har kuni xizmat ko'rsatish, navbatchilik asosida ishlar va boshqalar) tufayli ishlanmaydigan bayram kunlari to'xtatib qo'yish mumkin bo'lmagan ishlarni bajarishda dam olish kunlari ko'chirilmagligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi va boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda hududlarda Ramazon hayitini xalqimizning milliy an'ana va urf-odatlariga uyg'un holda o'tkazish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

Turizm qo'mitasi Transport vazirligi bilan birgalikda yurtdoshlarimiz uchun Ramazon hayiti kunlarida mo'tabar ziyoratgohlar va tarixiy qadamlarga ziyoratlarni tashkil etish maqsadida qulay sharoit va imkoniyatlar yaratsin.

4. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Ramazon hayitini nishonlash bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi R.Q. Davletov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston
Respublikasi
Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV



BOZORLAR RAQAMLASHTIRILADI

Viloyat prokuraturasi tashabbusi bilan "Sam-bozor" (raqamli bozor) dasturi amaliyotga joriy qilinmoqda. Bunda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalangan holda raqamli "elektron aloqa" tizimi yo'lga qo'yilgan.

Past Darg'om tumanidagi bozorlarda xizmat sifatini yaxshilash va uni korpusiyadani xoli sohaga aylantirishga bag'ishlangan seminarida shu haqda so'z yuritildi.

Tadbirida viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A.Boboyev, viloyat prokurori M.Eshnazarov, viloyat IIB boshlig'i R.Mamatov, tuman (shahar) prokurorlari, mahalliy hokimliklar vakillari ishtirok etdi.

Seminarida "Sam-bozor" dasturi imkoniyatlari va erishilgan natijalar tahlil etildi. Bozor faoliyatini raqamlashtirish samarasida Past Darg'om tumanidagi 152 ta do'kon alohida abonent sifatida ro'yxatdan o'tkazilib, 53 kVT akkumulyatorli quyosh paneli o'rnatilgan, natijada davlatga sotilayotgan elektr hisobidan qo'shimcha daromad manbai yaratilgan.

Tadbir davomida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishining oldini olish borasidagi ishlarni izchil davom ettirish, korrupsion holatlarni keltirib chiqaruvchi omillar, sabablar va ularni bartaraf etishni viloyatning boshqa hududlarida ham joriy etish bo'yicha mas'ullarga topshiriqlar berildi.

Ramazon oyi barakali keldi

Munosabat



25-mart kuni barcha hududlarda ehson dasturxonlari yozilib, nuroniylar, ziyolilar, turli din va millat vakillari, nogironligi bor va ehtiyojmand kishilar ishtirokida iftorlik marosimi o'tkazildi. Viloyatimiz markazida tashkil etilgan iftorlik tadbirida biz, qo'shrabotlik bir guruh nuroniylar, ro'zadorlar ham qatnashdik.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning iftorlik marosimidagi nutqini videokonferensaloqa orqali tingladik. Davlatimiz rahbari xalqimizni va jamiki musulmon ummatini muborak Ramazon oyi bilan qutladi. Mamlakatimizda Islom dini-ning insonparvarlik mohiyatini chuqur o'rganish, buyuk tariximiz va madaniyatimiz durdonalarini, ulug' allomalarimizning boy merosini to'plash va keng targ'ib etishga qaratilgan, shuningdek, "Inson qadri uchun, inson baxti uchun" degan ezgu g'oya asosida amalga oshirilayotgan ishlar xususida so'z yuritildi.

Yaratganga behisob shukronalar bo'lsinki, sharofatli o'yni tinchlik-farovonlikda o'tkazaymiz. Tumanimizda bu oy davomida xayrli ishlar amalga oshirilyapti. Nogironligi bo'lgan, ehtiyojmand kishilar holidan xabar olinib, fayzli iftorlik marosimlari tashkil etilmoqda. Niyatlar ijobat bo'ladigan muborak



ramazon oyida Alloh taolodan butun dunyoda tinchlik, yurtimizda farovonlik, mehr-oqibat barqaror bo'lishini, dasturxonlarimizdan qut-baraka arimasligini so'rab, duolar o'qilmoqda.

Shukrki, bu galgi Ramazon oyi barakali keldi. Qo'shrabotliklarni osmonga qaragan xalq, deydishadi. Tuman aholisi azaldan lalmi yer maydonlarida dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib keladi. Qor va yomg'ir biz uchun barakadir. Bu yil muqaddas oy bahorning boshlanishiga to'g'ri keldi. Ramazonning ilk kunlarida qir-adirlar qalin qor bilan qoplangani,

oyning so'nggi kunlarida esa yomg'ir yog'gani bir necha yillardan beri suv tanqisligidan qiynalayotgan qo'shrabotlik dehqon va chorvadorlar uchun ayni muddao bo'lmoqda.

Bugungi fazilatli kechalarda dehqonchilikka, chorvachilikka baraka beradigan, talofat yetkazmaydigan yog'ingarchiliklar bo'lishini Yaratgandan so'raymiz. Qalbimizdagi ezgu niyatlar ijobatini bersin!

Shavkat JONIQULOV,
"Nuroniylar" jamg'armasi Qo'shrabot tuman bo'limi raisi.

O'tgan yili Prezidentimizning topshirig'iga asosan Jizzax viloyatining Zarbdor tumanida aholi o'rtasida kambag'allikni qisqartirish va yangi ish o'rnlari yaratish maqsadida o'z "yuk"ini tortolmay qolgan ayrim sohalarda bir qator drayver loyihalarni eksperiment sifatida amalga oshirishga qaror qilgach, respublikamizning barcha shahar va tumanlarida ham joriy etishga qaror qilindi.

"Zarbdor tajribasi" nima degani? Bu har bir tuman va shaharda sanoat, savdo, xizmat va zamonaviy agrotexnologiyalar sohasida kamida 5 tadan "drayver" loyihami shakllantirishdir, — deydi Oqdaryo tumani hokimining birinchi o'rinbosari Elyor Ashurov. — Ular tumandagi sanoat zonalari, bo'sh turgan davlat obyektlariga joylashtiriladi. Bizda ham shu tajriba asosida 2 ta sanoat, 3 ta xizmat ko'rsatish va 1 ta qishloq xo'jaligida drayver loyihalari ishlab chiqilib, amalga oshirish uchun 7,1 milliard so'm mablag' sarflash ko'zda tutilgan. Ushbu loyihalar orqali 160 ta yangi ish o'rni, budjetga 3,3 milliard so'mlik qo'shimcha tushum, 44,1 milliard so'm qo'shimcha hajm yaratish rejalashtirilgan. Birinchi bosqichda amalga oshiriladigan 4 ta drayver loyiha tasdiqlandi. Jumladan,



bitta loyiha bo'yicha tuman hududidan o'tgan M-37 xalqaro avtomagistrali yo'l bo'yidagi 0,12 gektar bo'sh yer maydonini 30 ta lotga bo'lib, auksionga chiqarish orqali 30 ta savdo va xizmat ko'rsatish obyektda "Servis poynt"larni tashkil etish ko'zda tutilgan.

Xo'sh, nima uchun aynan drayver soha sifatida mazkur hudud tanlab olindi? Bu loyihani amalga oshirish tumanga qanday foyda beradi?

— Mazkur avtomagistral yo'lining qariyb 44 kilometri tuman hududidan o'tadi va bir sutkada qarama-qarshi yo'nalishda 23,5 mingta mashina o'tadi, — deydi tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi tadbirkorlik va innovatsiyani rivojlantirish bo'limi bosh mutaxassisi Bobur Yusupov. — Ushbu mashina egalari o'rta 10 foizi savdo xizmat

shoxobchalaridan o'rta 10 ming so'mlik mahsulot xarid qilganda, 23 million so'm miqdorida savdo va xizmat ko'rsatish daromadi olinadi. Hududdan bir yilda 8,5 millionta mashina o'tishini e'tiborga olsak, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari orqali 8 milliard so'm daromad qilish mumkin.

Hozirda loyiha joylashgan hududda 35 ta xizmat ko'rsatish obyektidan 20 ta umumiy ovqatlanish va savdo, 8 ta avtomobillar-ga xizmat ko'rsatish, 6 ta maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari, shuningdek, 1 ta dam olish maskani faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu loyiha amalga oshirilsa, 50 ta yangi ish o'rni yaratiladi. Budjetga qo'shimcha 800 million so'm soliq tushumi hamda 13,5 milliard so'm qo'shimcha daromad manbai yaratiladi. Tajriba asosida amalga oshirilishi ko'zda



tutilgan yana bir drayver loyiha tuman markazidagi "Oqdaryo istirohat bog'i" faoliyatini qayta tashkil etish hisoblanadi. Istirohat bog'i 4,65 gektar yer maydonini egallagan bo'lib, 3 yildan buyon deyarli foydalanmasdan kelinmoqda. Bog'ni davlat-xususiy sheriklik asosida tashabbuskor tadbirkorga berish va uni zamonaviy ko'rinishga keltirish orqali 5 ta xizmat ko'rsatish obyekti faoliyatini kengaytirish va 10 ta yangi, zamonaviy attraktsionlar olib kelib o'rnatish imkoniyati bor. Agar loyiha ishga tushsa, 20 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

Shuningdek, qishloq xo'jalik yo'nalishida Yangiqishloq mahallasidagi 50 gektar maydonidagi samarasiz eski bog'larni rekonstruksiya qilish orqali yangi intensiv bog'barpo etish borasida ishlar boshlangan. Mart-aprel oylarida yer maydoni to'liq tozalani, zamonaviy bog' yaratish uchun mevali daraxt ko'chatlari ekiladi. Mazkur drayver loyiha ishga tushirilsa, 25 nafar yangiqishloqlik ishsizlar doimiy daromad manbaiga ega bo'ladi.

Dahbed shaharchasi hududidan o'tgan Shaxob kanalining ikki bo'yida bo'sh turgan 0,10 gektar yer maydonida aholi dam olish, savdo va xizmat ko'rsatish loyihalarini amalga oshirish imkoni bor.

— Bugungi kunda ushbu mahallada kanal yonida 250 ta xonadonli 10 ta yangi ko'p q-



vatti uylar qurilib, foydalanishga topshirilmoqda, — deydi Elyor Ashurov. — Tez orada qariyb mingga yaqin aholi yangi uylarga ko'chib kelishi kutilmoqda. Biroq hududda aholi talabiga javob beradigan, ular uchun zamonaviy dam olish, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari yetishmaydi. Shu sabab ichki imkoniyatdan kelib chiqib, 15 ta dam olish maskani, maishiy xizmat ko'rsatish va savdo shoxobchalari tashkil etishni maqsad qilganmiz. Hozirda hudud 15 ta lotga bo'linib, auksionga chiqarilmoqda. Agar drayver loyihamiz amalga oshsa, 30 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

Bugungi kunda Oqdaryo tumanida "Zarbdor tajribasi" asosida loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu drayver loyihalardan qay darajada samarali foydalanilayotgani yil oxirida ayon bo'ladi.

Dilmurod TO'XTAYEV,
"Zarafshon" muxbiri.



Biz uchun odatga aylangan holatlar javobgarlik keltirib chiqaradi. Ko'pincha huquqimiz bo'la turib bilmaganimiz tufayli undan foydalanolmaymiz. Shu sabab kundalik hayotimizda dolzarb ahamiyatga ega ayrim qonun hujjatlaridan misollar keltirishni lozim topdik.

Gazetamizning ushbu sahifasi bo'yicha fikr-mulohazalaringiz bo'lsa tahririyat manziliga yoki @zarafshonbot telegram messenjeri orqali murojaat qilishingiz mumkin.

Hisoblagichni ta'minotchi qiyoslovdan o'tkazadi

O'zbekistonda aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvi va issiq suv hisoblagichlarini davriy qiyoslashdan o'tkazish uchun murojaat qilish talabi bekor qilingan. Endilikda muddati yetgan hisoblagichlarni qiyoslashdan o'tkazish ta'minotchi korxonalar zimmasida. Bu boradagi davlat xizmatlarini proaktiv shakliga o'tkazish o'tgan yil dekabrda hukumat qarorida belgilangan.

Jismoniy shaxslar har 8 yilda, yuridik shaxslar 4 yilda elektr energiyasi, gaz va suv hisoblagichlarini qiyoslashdan o'tkazishi kerak. Aniqrog'i, metrologiya xizmati hisoblagich



to'g'ri ishlayaptimi-yo'qmi tekshiradi. Ilgari buning uchun fuqarolar va yuridik shaxslar davlat xizmatlari markaziga borib, yoki my.gov.uz portali orqali qiyoslashdan o'tkazish uchun ariza berishi kerak edi. Ya'ni, majburiyat fuqarolarning o'z bo'ynida edi. Endi fuqaro hech qayerga ariza bermaydi. Ta'minotchi korxonaning o'zi hisoblagichlarni kuzatib boradi, qiyoslashdan o'tkazishga 3 oy muddat qolganda har bir xonadon yoki korxonaga borib, hisoblagichlarni yechib olib ketadi, qaytarib olib kelib o'rnatadi.

Shu paytgacha amalda bo'lgan tartibga

ko'ra, ariza berilgan paytda qiyoslashdan o'tkazish uchun alohida to'lov qilinardi. Yangi tartib bilan esa hisobraqam-dagi pul yechib olinadi. Qiyoslashdan o'tkazish summasi hozirgi kunda jismoniy shaxslar uchun bazaviy hisoblash miqdorining 20 foizi (75 ming so'm), yuridik shaxslar uchun BHMning 1,5 barobari (562 500 so'm) hisoblanadi.

Agar hisobraqamda yetarlicha pul bo'lmasa, qarzga yoziladi va pul to'laganingizda yechib olinadi.

Ta'minotchi korxonada xodimi xonadonga borganida uyda hech kim bo'lmasa va hisoblagichni olib keta olmasa, ta'minotchi korxonada dalolatnoma tuzadi va uni pochta orqali yuboradi. Shundan keyin siz ariza topshirishga majbur bo'lasiz va davlat xizmatlari markaziga murojaat qilishingiz kerak.

Hojibek ISOQOV,
Samarqand shahar Davlat xizmatlari markazi katta mutaxassisi.



Vazir ustamasi kimlarga beriladi?

- Oliy toifali o'qituvchiman, 15 yillik ish stajim bor. Vazir ustamasi da'vogarlik qilsam bo'ladimi? Buning uchun qanday talablar qo'yilgan?

– 2025-yilda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining tegishli buyrug'i bilan Vazir jamg'armasi hisobidan har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagog kadrlarning respublika bo'yicha cheklangan soni va nomzodlarni saralash bo'yicha reglament tasdiqlandi. Unga ko'ra, respublika bo'yicha 1500 nafar pedagog jamg'arma tomonidan ustama oladi.

Vazir ustamasiga nomzodlar malakali pedagog kadrlar uchun qo'yilgan mezonlarga javob berishi kerak. Ya'ni, o'quvchilari oliy ta'lim muassasalariga yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga agentligi tizimidagi maktablarga kirish imtihonlarida eng yuqori natija ko'rsatgan, o'quvchilari xalqaro yoki respublika miqyosidagi musobaqa va tanlovlarda sovrinli o'rnlarni olgan bo'lishi lozim.

Vazir jamg'armasidan oylik ustama oluvchi pedagoglarni aniqlash nomzodlar orasida ikki bosqichda amalga oshiriladi. Yakuniy natijalarga ko'ra, eng yuqori ball to'plagan malakali pedagog kadrlarga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 5,5 baravari miqdorida, ya'ni 6 million 352 ming so'm miqdorida har oylik ustama to'lanadi.

Birinchi bosqichda pedagoglar dars beradigan fani bo'yicha test sinovlaridan o'tadi. Test sinovi <http://test.uz> sayti orqali onlayn o'tkaziladi. Imtihonda pedagoglarga 40 ta savol va har bir to'g'ri javobga 2,5 ball beriladi. Test sinovida maksimal ballning 80 foizidan past natija ko'rsatgan nomzodlar saralashning ikkinchi bosqichiga qo'yilmaydi.

Ikkinchi bosqichda o'tkazilgan test sinovlarida maksimal ballning 80 foizi yoki undan yuqori natija ko'rsatgan nomzodlarning kasbiy mahoratini baholash uchun suhbat o'tkaziladi.

Savolga Samarqand shahridagi 28-umumiy o'rta ta'lim maktab direktori o'rinbosari Shahnoza MARDIYEVA javob berdi.

Poyga o'tkazganlik uchun javobgarlik bormi?



Qonunchiligimizda ayni poyga o'tkazganlikning o'zi uchun javobgarlik belgilanmagan. Lekin poyga o'tkazish natijasida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan ayrim xatti-harakatlar javobgarlik keltirib chiqarishi mumkin.

Masalan, transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini oshirib yuborishi, belgilangan tezlikka nisbatan qancha ko'pligiga qarab bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravari-gacha jarima solishga sabab bo'ladi.

Transport vositalarini quvib o'tish qoidalarini buzish uchun bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida jarima solinadi.

Yo'l bezoriligi (drift, keskin ravishda shaxmat usulida harakatlanish kabilari)ni sodir etish, transport vositalarini boshqarish huquqidan bir yildan ikki yilgacha muddatga mahrum qilib, bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Mazkur norma joriy yilda qonunchilikka kiritilgan. Ushbu qo'shimcha bilan guruh bo'lib harakatlanish uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida jarima jazosi belgilangan.

Xotinini ishga chiqarmaganlarga chora bor

Gohida "xotinimning ishlashiga qarshiman, shu sababli hozirda uyda o'tiribdi", degan gaplar quloqqa chalinadi. Bunday odat endi o'tmaydi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 59-2-moddasiga ko'ra, erining xotiniga yoki xotinning eriga mehnatga oid huquqini amalga oshirishiga to'sqinlik qilishi oilaviy zo'ravonlik hisoblanadi.

Bunday holat uchun bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan yigirma baravari-gacha jarima yoki o'n sutkagacha muddatga ma'muriy qamoq jazosi belgilangan.



O'quvchilar darsdan qochsa, kimga chora ko'riladi?

Maktabda o'qituvchi dars mashg'ulotiga vaqtida borsa, lekin sinfdagi o'quvchilar darsdan qochib ketgan bo'lsa, kimga qanday chora ko'riladi?

Qiziq savol. Odatda bunday holatda ko'pchilik pedagog xodimlar ularga nisbatan intizomiy jazo qo'llanilish ehtimolidan xavfsirashadi.

Amaldagi mehnat qonunchiligiga ko'ra, xodimning o'z mehnat majburiyatlarini bajarishi uchun ish beruvchi unga yetarlicha sharoit yaratib berishi lozim.

O'quvchining dars jarayonlarida uzluksiz qatnashish majburiyati Xalq ta'limi vazirligining 2022-yilda-

gi tegishli buyrug'iga ko'ra ana shu o'quvchi o'tanasining zimmasiga yuklatilgan. Ya'ni ota-ona o'z bolasini darsdan qochganligi uchun javobgar.

Bunda tegishli maktab ma'muriyati tomonidan o'sha qochib ketgan bolaning fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi yoki Milliy gvardiya psixolog-inspektoriga xabar berilib, shu o'quvchi bilan tushuntirish ishlari olib borilishi lozim.

O'qituvchining dars o'ta olmay bekor turib qolishi uchun esa, Mehnat kodeksi 266-moddasi 2-qismiga muvofiq, uning ta'rif stavkasi (maoshi) ning kamida uchdan ikki qismi miqdorida haq to'lanadi.



Shaxsni tasdiqlovchi hujjatni yo'qotmang ...

Negaki Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga ko'ra:

- fuqarolarning pasportsiz yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasiz;
- haqiqiy bo'lmagan pasport yoki identifikatsiyalovchi ID-karta bilan;
- doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tmasdan yashashi;
- xorijga chiqish uchun biometrik pasportini qasddan yaroqsizlantirishi;
- ehtiyot qilib saqlamaganligi oqibatida yo'qotib qo'yishi;
- fuqaroligi bo'lmagan shaxsning harakatlanish hujjatini qasddan yaroqsizlantirishi yoki uni ehtiyot qilib saqlamaganligi oqibatida yo'qotishi bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismidan uch baravarigacha miqdorida jarima



solishga sabab bo'ladi.

Ushbu holatlar bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

O'n sakkiz yoshgacha bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi o'n olti yoshga to'lishi munosabati bilan identifikatsiyalovchi ID-kartasini o'z vaqtida olmaganligi uchun ma'muriy javobgarlikka tortilmaydi.

Azizjon MELIKOV,
Samarqand shahar Davlat xizmatlari markazi katta mutaxassisi.

Aliment bo'yicha xorijga chiqishga qo'yilgan taqiqni olib tashlash mumkin

Mavsumiy ishlash uchun xorij safariga borayotgan shaxslarning ayrimlarida aliment bilan bog'liq muammolar bor. Tabiiyki, bu ularning yo'lga chiqishga ikkilantirib turibdi.

Vaholanki, qonunchiligimizda aliment bo'yicha xorijga chiqishga qo'yilgan taqiqni yechishning 2 ta yo'li qayd qilingan:

- alimentni oldindan to'lash;
 - aliment bo'yicha garov shartnomasini tuzish.
- Birinchi yo'lida aliment oldindan 5 yildan kam bo'lmagan muddatga to'lanishi kerak. Bolalar voyaga yetgunigacha bo'lgan davr 5 yildan kam bo'lsa, alimentlarni oldindan to'lash qolgan davr uchun amalga oshiriladi.

Garov qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 250 baravari (93 million 750 ming so'm)dan kam bo'lmasligi lozim. Har

qanday mol-mulk (avtomobil, do'kon, uy-joy, kvartira) garov predmeti bo'lishi mumkin.

Alimentni oldindan to'lash yoki alimentni garov bilan ta'minlash uchun ijro hujjatini bergan sudga murojaat qilinadi.

Bunda sudga ijro hujjatini ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish to'g'risida ariza beriladi.



Bolani diniy ta'limga jalb qilgan qamaladi(mi?)

Farzandlarini diniy bilim olish uchun o'qishga berganligi uchun ota-onalar qamalishi mumkin ekan, deb eshitib qoldim.

Ya'qinda davralardan birida ko'tarilgan bu masala ko'pchilik uchun qiziq.

Negaki bu yerda bolalarini diniy ta'lim olishga jalb etish uchun emas, balki qonunga xilof ravishda diniy ta'lim olishga jalb etish uchun javobgarlik borligini e'tiborga olish lozim.

«Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunning 23-moddasiga ko'ra, qonunga xilof ravishda diniy ta'lim olishga jalb etish deganda bolani ro'yxatdan o'tkazilmagan yoki litsenziyaga ega bo'lmagan tashkilotlarga yoxud maxsus diniy ma'lumotga ega bo'lmagan va diniy tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasi bo'yicha markaziy boshqaruv organining ruxsatisiz diniy ta'limni amalga oshirayotgan shaxslarga diniy ta'lim olish uchun topshirish

tushuniladi.

Farzandlarini qonunda belgilangan tartibda diniy ta'lim berish huquqiga ega bo'lgan ta'lim muassasalariga o'qishga berish uchun hech qanday javobgarlik mavjud emas.

Lekin Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 47-moddasi 3-qismiga ko'ra, ota-onalar yoki ularning o'rni bosuvchi shaxslar tomonidan o'z bolasini qonunga xilof ravishda diniy ta'lim olishga jalb etish bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravari-gacha miqdorida jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Subsidiya – qaytarilmaydigan qarz

Amaldagi tartibga ko'ra, biznesini endi boshlayotgan, mablag'i kam tadbirkorlarga davlat ko'mak beradi. Bunda davlat subsidiyasi turli sohalarida turlicha talqin etiladi.

Yengil konstruksiyali issiqxonalar o'rnatish uchun subsidiya ishsiz, kam ta'minlangan yoki kambag'al oilalar a'zosi bo'lgan tomorqa yer egalari-ga beriladi. Ular yengil konstruksiyali issiqxonalar o'rnatish va/yoki urug'liklar, ko'chatlar yoxud sug'orish vositalari xarid qilish uchun subsidiya ajratish bo'yicha tavsiya berishni so'rab o'zining doimiy yashash manzilidagi hokim yordamchisiga yoki "Onlayn mahalla" elektron platformasi orqali murojaat qilishi mumkin.

Arizada tomorqa yer egasining familiyasi, ismi va otasining ismi, doimiy yashash manzili, pasport seriyasi va raqami (ID-karta raqami), ishsiz, kam ta'minlangan yoki kambag'al oila a'zosi ekanligi, tomorqa yerga egalik huquqi mavjudligi hamda so'ralayotgan subsidiyaning turi ko'rsatiladi.

Ushbu subsidiya turidan foydalanish huquqi har bir oilaga faqat bir marta beriladi.

Asbob-uskuna, mehnat qurollarini xarid qilish uchun subsidiya tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilish faoliyatini boshlamocchi bo'lgan ishsiz, shu jumladan, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolar uchun beriladi.

Ular faoliyatini boshlash uchun kerak bo'ladigan asbob-uskuna va/yoki mehnat qurollari xarid qilish uchun subsidiya ajratish bo'yicha tavsiya berishni so'rab, o'zining doimiy yashash manzilidagi hokim yordamchisiga yoki "Onlayn mahalla" elektron platforma orqali ariza bilan murojaat qilishi mumkin.

Xususiy klinika ham bepul xizmat ko'rsatishi shart

"Soliq imtiyozlari taqdim etilishi natijasida bo'shaydigan mablag'lar hisobidan xususiy tibbiyot muassasalarining aholi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga bepul tibbiy xizmatlar ko'rsatish tartibi to'g'risidagi" Nizomga ko'ra, xususiy tibbiyot muassasalar tomonidan aholining quyidagi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga bepul tibbiy xizmatlar ko'rsatiladi:

- o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalar va yolg'iz yashovchi keksalar;
- I va II guruh nogironlari, nogiron bolalar;
- muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolar;
- ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan shaxslar;
- yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar;
- 1941-1945-yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek, ularga tenglashtirilgan shaxslar;
- 1941-1945-yillardagi urush davrida mehnat jabhasining qatnashchilari;
- qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ijtimoiy himoyaga muhtoj deb topilgan boshqa shaxslar.

Xususiy tibbiyot muassasalar tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga bepul tibbiy xizmatlar ko'rsatish uchun ularning shaxsini va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamga mansubligini tasdiqlovchi hujjatlarining mavjudligi asos bo'ladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga ko'rsatiladigan bepul tibbiy xizmatlarning turlari va hajmi tibbiy faoliyatni amalga oshirish uchun berilgan litsenziyada ko'rsatilgan ixtisosliklar doirasida tashxis so'yish va davolash imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda xususiy tibbiyot muassasalar tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.



Sahifani Yoqubjon MARQAYEV tayyorladi.

SOLIQ

TO'LASHNI
UNUTMADINGIZMI?

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, jismoniy shaxslar uchun mol-mulk va yer soliqlarini to'lashning dastlabki muddati 15-aprelgacha etib belgilangan.

Soliq kodeksining 419-moddasiga muvofiq, mol-mulk solig'i jismoniy shaxslarning egaligidagi uy-joylar, kvartiralar, dala hovlilar, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari va qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo'ljallanmagan obyektlar uchun hisoblanadi. Yer solig'i esa Soliq kodeksining 433-moddasiga asosan, mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish, ijara yoki meros huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkalaridan olinadi.

2025-yilda jismoniy shaxslarning

mol-mulk solig'i soliq solish obyektlaridan kelib chiqib, kadastr qiymatining 0,34 foizdan 1,5 foizgacha tashkil etadi. Yer solig'i esa yer maydoni va joylashuviga qarab tabaqalashtirilgan stavkalar asosida hisoblanadi va viloyatimiz uchun bazaviy yer solig'i stavkasi 1 kvadrat metr uchun mutlaq o'lchamda 433 so'm etib belgilangan.

Soliq kodeksining 421-va 436-moddalariga muvofiq, ayrim toifa fuqarolar uchun mol-mulk va yer solig'idan imtiyozlar taqdim etilgan. Bu imtiyozlar aholining

ijtimoiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, urush faxriylari va ularga tenglashtirilgan shaxslar, I va II guruh nogironlari, yolg'iz pensionerlar, boquvchisini yo'qotganlar, kam ta'minlangan oilalar, pensiya yoshiga yetgan shaxslar uchun soliq imtiyozlari amal qiladi. Buning uchun qonuniy yengillikka ega bo'lgan shaxslar soliq imtiyozlarini olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organlariga mustaqil ravishda taqdim etishlari lozim.

Fuqarolar soliq to'lovlarini soliq uz mobil ilovasi, Click, Payme to'lov tizimlari orqali onlayn ravishda amalga oshirishi mumkin.

Soliq to'lash - bu nafaqat fuqarolik burchi, balki davlatning rivojlanishiga qo'shilgan ulush hamdir.

Viloyat davlat soliq boshqarmasi axborot xizmati.

Tarixni o'rganishning samarali uslublari

Tarix fanida o'quvchilarga nafaqat o'tmishga oid ma'lumotlar beriladi, balki ular otabobolarimizdan qolgan madaniy merosga hurmat bilan qarashga ham o'rgatiladi. O'qituvchilarning tarixni o'qitishning samarali usullaridan foydalanishi esa o'quvchilarni darslarda faol ishtirok etishga undaydi, o'tmishdagi voqealarni mazmun-mohiyat nuqtai nazardan chuqurroq anglash imkonini beradi.



Masalan, tarixda yuz bergan voqea-hodisalarni o'yin uslubi yordamida, hayotiy misollar orqali taqdim etish o'quvchilarda fanga qiziqishni oshiradi. Tarixiy shaxslar va voqealarning uyg'unligini ta'minlaydi. O'quvchi sahna tomoshasida tarixiy shaxslar rolini ijro etishi orqali uzoq yoki yaqin o'tmishdagi muhim voqealarni ongida qayta tiklaydi. Qolaversa, bu usul o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirsa, bir tomondan ularning tarixiy jarayonlarni chuqurroq tushunishiga yordam beradi.

Fanni o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali ham natijaga erishish mumkin. Jumladan, o'quvchilarga multimedia taqdimotlar, interfaol videomateriallar, onlayn resurslar orqali tarixiy voqealarni qiziqarli tarzda

o'rgatsa bo'ladi. Mashg'ulotlarimda ko'pincha internetdagi virtual muzeylar, tarixiy xaritalar va interfaol dasturlardan keng foydalanaman. Bu o'quvchilarga sinfdan chiqmasdan turib, nafaqat mamlakatimiz, balki dunyoda yuz bergan tarixiy voqealarni kuzatish, madaniy meros yodgorliklari, muzeylarda saqlanayotgan ashyolar bilan tanishish imkonini beradi. Ayniqsa, ushbu usul o'quvchilarning diqqatini jalb qilishda qo'l keladi.

gan jarayonlarga munosabati tiniqlashadi.

Ta'kidlash o'rinliki, tarix fanini o'qitishda darslarni joylardagi mavjud madaniy meros obyektlari, muzeylarga sayohat tarzida tashkil etish eng samarali usul sanaladi. Chunki viloyatimizda 1600 dan ziyod madaniy meros obyektlari bo'lib, ular deyarli har bir tumanda bor. Demak, yoshlar ongiga tarixga oid bilimlarni singdirishni ko'zlagan o'qituvchida bunday qulayliklardan foydalanish imkoniyati keng. Tarixni o'rganish o'tmishni anglashgina emas, balki kelajakni qurish uchun ham muhim ekanligini nafaqat o'qituvchi, ta'limga mutasaddi bo'lganlar, qolaversa, ota-onalar anglab yetishi kerak.

Dilnoza BOZOROVA,
Ishtixon tumanidagi
59-umumta'lim maktabining
tarix fani o'qituvchisi.

FIDOYI SURATKASH

1950-yil Samarqand tumanining Turkman qishlog'ida tug'ilgan Rabbim Hotamov jurnalistikaga ilk qadamni Turkmanistonda o'tagan harbiy xizmati chog'ida qo'ygan. O'sha yillarda navqiron yigit "Чаржауская правда" gazetasida shtatsiz muxbir sifatida ishlagan.

1975-yildan boshlab Bulung'ur tumanining "Kommunist" (hozirgi "Bulung'ur hayoti") gazetasida musahhih, muxbir, fotomuxbir bo'ldi. Keyinchalik "Овози Самарқанд", "Самарқандский вестник", "Zarafshon" gazetalarida muxbir va fotomuxbir sifatida mehnat qilib, zamon ruhi aks etgan dolzarb mavzudagi maqola hamda fotolavhalari bilan elga tanildi.

Gazetachilikning barcha mashaqqatlarini boshidan o'tkazgan ustoz 4 farzandni el koriga yaraydigan mutaxassislar qilib tarbiyaladi.

O'zining 75-bahorini qarshilagan Rabbim Hotamov hamon "Bulung'ur hayoti" gazetasida ishlab, yoshlarga o'z tajribalarini o'rgatib kelmoqda. Bugun ham g'ayrat-shijoat bilan mehnat qilayotgan hamkasbimizga uzoq umr tilaymiz!

"Bulung'ur hayoti" gazetasi tahririyati jamoasi.



REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

OCHIQ MA'RUZA O'TKAZILADI

SamDTU jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti kafedrasida katta o'qituvchisi Sh.A.Mamasoliev va SamSI real iqtisodiyot kafedrasida mudiri, PhD., dots., Z.S.Ortiqov bilan "Xavflarni boshqarish strategiyasi" mavzusida 2025-yil 28-mart kuni (soat 11:10 dan 12:30 gacha) integratsiyalashgan ochiq ma'ruza o'tkaziladi.

Manzil: SamSI o'quv binosi, konferentsiyalar zali.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloevna notarial idorasida marhum Kim Gennadiy Semyonovichga (2024-yil 10-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasida marhum Nabiyev Xurramga (2002-yil 15-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gulobod ko'chasi, 5-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasida marhum Nabiyeva Marxaboga (2005-yil 12-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gulobod ko'chasi, 5-uy.

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hasanov Aloviddin G'iyosiddin o'g'li notarial idorasida marhum Ibragimov Sharipboy G'aybullayevichga (2020-yil 19-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hasanov Aloviddin G'iyosiddin o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Toyloq shaharchasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Far-

rox Farxodovich notarial idorasida marhum Asadov Boltaga (2020-yil 27-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-"B" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Toshkulov Farrux Farxodovichga (2023-yil 2-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-"B" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Emirov Ruslanga (2024-yil 10-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Musinov Muxtaraliga (2022-yil 25-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasida marhum Muxtorov Raximga (2007-yil 30-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gulobod ko'chasi, 5-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloevna notarial idorasida marhum Tyo Etlevevin Nikolayevichga (2023-yil 26-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan

SAMARQAND VILOYATI AHOLISI, KORXONA VA TASHKILOTLARI RAHBARLARI DIQQATIGA!

ICHIMLIK SUVINI YETKAZIB BERISH VA OQOVA SUVNI CHIQARISH XIZMATLARI NARXLARI O'ZGARMOQDA!

Xalq deputatlari Samarqand viloyati kengashining 2025-yil 24-martdagi VII-9-40-7-0-K/25 sonli qaroriga asosan 2025-yil 10-apreldan ichimlik suvini yetkazib berish va oqova suvni chiqarish bo'yicha quyidagi yangi tariflar kuchga kiradi.

"Samarqand suv ta'minoti" AJ tomonidan iste'molchilarga ko'rsatilayotgan xizmat turlari	1 m ³ ichimlik suvi uchun (QQS bilan):			1 m ³ oqova suvi uchun (QQS bilan):		
	Aholi uchun	Budget hisobidagi korxonalar uchun	Xo'jalik hisobidagi korxonalar uchun	Aholi uchun	Budget hisobidagi korxonalar uchun	Xo'jalik hisobidagi korxonalar uchun
Samarqand viloyati	3136 so'm	7504 so'm	7504 so'm	2128 so'm	5936 so'm	5936 so'm

Yangi tariflar kuchga kirishi munosabati bilan aholidan, korxonalar va tashkilotlar rahbarlaridan ichimlik suvi va oqova xizmatlari bo'yicha mavjud qarzdorlikni 2025-yil 10-aprelgacha to'liq to'lashlarini so'raymiz.

"SAMARQAND SUV TA'MINOTI" AKSIYADORLIK JAMIYATI.

merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloevna notarial idorasida marhum Kuzmin Viktor Petrovichga (1987-yil 11-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Istamov Baxrom Erjigitovichga (2024-yil 28-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 13-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Mirzayev Iskandar Xodiyevichga (2024-yil 29-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk

uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Zakirova Shaxodat Buriyevnaga (2020-yil 20-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Raufov Tolibjonga (2023-yil 30-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Xusainova Saboga (1997-yil 25-martda vafot etgan)

tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

TOPGANGA MUKOFOT
Samarqand viloyat ichki ishlar boshqarmasidan Adilov Bekzod Toirovichga berilgan pensiya guvohnomasi Ishtixon tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99893-282-06-09.

BEKOR QILINADI
Nurobod tumanidagi "QUSHQUDUQ NUR-BULOQ" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 311396775) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi "AMIN BAXRIDIN GOLD" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 308553944) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Toyloq tumanidagi "AFROSIYOB MED DI-AGNOSTIKA" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 305138321) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

СПЕКТАКЛЬ

Кўп,

ТОМОШАБИН-ЧИ?

27 март – Халқаро театр куни




Mulohaza uchun mavzu



Зиёли бир танишимни театрга таклиф қилдим.

- Ака, бугун бир театрга бормаймизми, шу баҳона болаларни ҳам айлантриб келармик?

- Дўстим, бугун дам олиш куни бўлса, ундан кўра, бирор жойга бориб, икки сих шашлик билан а, нима дейсиз?...


Очиғи, баъзида ўзим ва атрофимдаги зиёлиларнинг театр, музей ёки тарихий обидаларга кам боришидан ҳижолат чекам. Чет давлатларга борганларнинг айтишича, бундай масканларга келатганлар орасида маҳаллий аҳоли кўпчиликни ташкил этар экан. Афсуски, бизда бундай эмас. Умуман, маънавият, маданият ва тарихга қизиқиш, уни ҳурмат қилиш кўникмаси қуйи бўғинга тушиб бораётгандек назаримда. Аксинча бўлганда, одамлар, айниқса, ёшлар бўлар-бўлмас шу қўрсатаётган гуруҳлар орасидан эргашмасди, улардан андоза олмасди.

Хўш, БУНГА САБАБ НИМА?

Биринчидан, бугунги кунда ижтимоий тармоқлар оммалашиб, енгил-елпи лавҳалар, савияси паст кўйиш ва фильмлар, бачкана дастур ҳамда кўнгилолчар видеолар кўпайиб кетди. Бу эса одамларга маънавий озук бўладиган маданият ва санъатнинг жар ёқасига келиб қолаётганини кўрсатмоқда.

Иккинчидан, хорж маданияти, киноси, кўшиқлари, умуман, "оммавий маданият"нинг кириб келиши натижасида замонавий ҳаёт тарзида кўпроқ интерактив ва динамика кўнгилолчар воситаларга талаб ошмоқда. Натижада буларнинг барчаси миллий маданиятимиз ва санъатимизга салбий таъсир қилляпти ҳамда театр ва музейларнинг ўрни йўқолиб борапти.

Учинчидан, ижтимоий тармоқларда театр репертуаридаги спектакллар рекламиси машҳур инсонлар ёки креатив видеоролик ва трейлерлар орқали намойиш этилмайди. Шунчаки эълонда қайси театрда, қандай номдаги спектакль намойиш этилиши кўрсатилади, холос. Ваҳоланки, машҳур ва профессионал актёрлар ёки режиссёрларнинг хатти-ҳаракати, тарғиботлари спектаклга бўлган қизиқишни оширади.

Тўртинчидан, китоб ўқийдиган, илмга қизиқадиганлар ҳам камийиб кетмоқда. Психологлар фикрига кўра, ҳозир одамлар кўпинча иш, ўқиш ёки ҳаётдаги бошқа муаммолар сабабли кўп стресс ва тангликка дуч келишади. Енгил мазмундаги контент уларга диққатини жалғитиш, дам олиши ва кайфиятини кўтаришга ёрдам беради.

Бешинчидан, одамлар узун ва маънодор контентни тушуниши учун вақт ва диққат зарур бўлади. Бизда эса битта спектаклни кўришга камида бир соат вақт кетади. Одамлар эса кўп вақт сарфламасдан, енгилроқ ва тезроқ мазмунли нарсаларни танлашади. Оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармоқлар енгил контентни кенг тарқатади ва унга бўлган талабни оширади. Одамлар ўз атрофидигиларнинг танловларига таъсирланиб, шундай контентларни танлашга мойил бўлмоқда.

ТЕАТР - ЖОНЛИ КЎЗГУ, УНДАН ВОЗ КЕЧИБ БЎЛМАЙДИ

- Театрга тушиш учун бирон ҳафта олдин чипта олиб қўйилмаса, спектакль

кўриш амримахол бўлган пайтларни ёши катталар яхши эслайди, - дейди вилоят мусиқали драма театри актриси, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Бахтиёр Раҳимов. - 46 йиллик фаолиятимдан келиб чиқиб айтишим кераки, театр шунчаки сахна асари эмас, балки жонли кўзгу. Турмуш тарзимиздаги нуқсонларни, инсонларнинг асл қиёфасини очиқ-ойдин кўрсатади, атрофимизда юз бераётган, ammo биз илғамаган ҳаёт ҳақиқатларини англашга ундайди. Шу боис ундан воз кечиб йўқотиб ёки ўрнини бошқа нарса билан тўлдириб бўлмайди. Ҳозир ҳам театрларимизда қўйилаётган спектаклларда ана шу мазмун ва ғоя сақланиб қолган. Фақат бундай асарларимиз санокли. Бу эса театрларимизга маҳоратли актёр, режиссёр ва драматурглар кераклигини англади.

Томошабинларга келсак, уларнинг театрга келиб, спектакль томоша қилиши, ундан хулоса чиқариши жамиятнинг савияси, одамларнинг турмуш даражаси ва энг асосийси, оила муҳитига боғлиқ. Орамизда умрида бир марта театрга бормаган, спектакль томоша қилмаганлар бор. Бу ҳам майли, театрга келиб, спектакль кўриш ўрнига, гап сотиб ўтирган ёки телефонидан бошини кўтармаётган томошабинлар ҳам йўқ эмас. Мисол учун, ҳоким театрга борса, у билан ўринбосарлари ва бошқа мутасаддилар ҳам келади. Оилада ҳам шундай - оила бошлиғи яқинларига ўрناق бўлса, қолганлар ҳам унга эргашади. Айтмоқчи бўлганим, бугунги глобаллашув даврида одамларга маънавий озук бўладиган театрда, умуман, маданият ва санъатга бефарқ қараб бўлмайди. Шундай экан, ҳар биримиз ўзгартириши ўзимиздан бошлашимиз керак.

ТИЗИМДА ҚАНДАЙ МУАММО ВА КАМЧИЛИКЛАР БОР?

Вилоятимизда тўртта театр бор. Вилоят мусиқали драма театрига 1914 йил 15 январда Маҳмудхўжа Бехбудийнинг «Падаркуш» спектакли билан тамал тоши қўйилган. 110 йиллик тарихга эга театрда турли мавзу ва жанрлардаги тарихий, миллий, замонавий ва жаҳон классик асарлари сахналаштирилиб, томошабинлар эътиборига ҳавола этилмоқда.

- Бу ерда 200 нафардан зиёд ходим ишлайди, - дейди театр директори Ботир Тугалов. - Режага кўра, йилга тўртта янги спектакль сахналаштирамиз. Ҳозирда 20 дан ортиқ сахна асари муҳлислар эътиборига ҳавола этилмоқда. Кўпчилик театр чипта нархлари қиммат деб ўйлаши мумкин, лекин ундай эмас. Чипталар томошабиннинг ёшига қараб, 10 минг сўмдан 40 минг сўмгача сотилади. Байрамлар арафасида ва театр ҳафталиги кунларида асосий масала ва бу маблағ билан боғлиқ. Ташкилотларда касабга уюшмаси томонидан ҳар бир ходим учун йиғим олинади. Жараёни ана шу маблағ ёки ҳомийлик маблағлари ҳисобидан ҳам ташкил қилса бўлади.

Тизимдаги асосий муаммолардан бири - кадрлар масаласи. Театримизда сахна

ишчилари, шифокор, маркетолог, ахборот хизмати штати йўқ. Аксарият ходимларимизга бу ишлар қўшимча вазифа сифатида юклатилган. Шунингдек, сахна учун медиа аппаратлар, декорациялар, кўрғазма воситалари етарли эмас. Театр труппаларининг худудларда томошалар қўйиши, турли тадбирларга жалб қилиниши учун йўл харажатлари ва чипта пуллари театрлар ҳисоб рақамига ўтказиб берилиши керак. Чунки театр ходимлари ўша маблағ ҳисобидан ойлик олади ва ишлади. Бунинг учун эса маҳаллий ҳокимликлар, корхона ва ташкилотлар театрлар ҳамда худудлардаги маданият бўлимлари билан ҳамкорликни йўлга қўйиши керак. Ҳозир эса бармоқ билан санокли ташкилотлар билан шартнома имзоланганми.

Мутахассислар фикридан кўриш мумкинки, одамларнинг спектаклларга қизиқишини ошириши, томошабинлар ўрнини тўлдириш учун театрда боришни одатга айлантириш лозим. Бунинг учун, аввало, таълим муассасалари ва вилоятдаги театрлар билан шартнома тузиш, спектакллар рекламиси, намойиши учун маблағ ажратиш. Боғча ва мактаб ёшидагиларнинг театрларга қатъий ва мунтазам боришини йўлга қўйиш керак. Шунингдек, ҳар бир ташкилотда бу амалиётни қатъий белгилаш мақсадга мувофиқ. Албатта, театрга бориши ташкил қилиш учун йўл харажатлари асосий масала ва бу маблағ билан боғлиқ. Ташкилотларда касабга уюшмаси томонидан ҳар бир ходим учун йиғим олинади. Жараёни ана шу маблағ ёки ҳомийлик маблағлари ҳисобидан ҳам ташкил қилса бўлади.

Фазлиддин РУЗИБОВЕВ.

Ижтимоий тarmoқ –
qarmoқ (mi?)

Tongda turib, har doim tuzadigan kunlik rejalarim qatoriga shu mavzuda maqola tayyorlashni ham qo'shib qo'ydim. Odamlarni kuzatish maqsadida ishga shaxsiy avtomashinamda emas, avtobusda borishga qaror qildim. Yoshligimda qaysidir gazetada o'qiganim yodimga tushdi. Unda yigit-qizlarning kattalarga joy bermasligi uchun o'zini uxlaganga solishi yoki boshini ko'tarmasdan, manziliga yetguncha "kitob o'qib ketishi" yozilgan edi. Avtobusda ham shunga o'xshash holatlarga ko'zim tushdi. Farqli tomoni, o'tirgan yoshlarning deyarli barchasi "uxlash" yoki kitob o'rniga qo'l telefonidan ko'zini uzmasdi. Hatto, tik turib ketayotganlarning ham aksariyati ijtimoiy tarmoqni kuzatish bilan band. Telefonga tikilganlar orasida nafaqat yoshlar, balki yoshi kattalar, bolalar ham bor.

Shu kuni xizmat safari bilan olis qishloqlarning biriga borishga to'g'ri keldi. Ishonasizmi, qishloqqa kirib borar ekanmiz, to manzilimizga yetguncha yo'limizda uchragan, hassaga suyanib kimnidir kutayotgandek bir nuqtaga tikilib turgan kekka otaxondan boshqa deyarli barcha - ko'cha bo'yida, do'kon yonida o'tirgan yigitlar, bola yetaklagan juvon yurib ketayotgan o'rta yoshi odam ham qo'lidagi telefonidan ko'zini uzmasdi.

Oddiygina hovlida 4 sotix tomoqdan samarali foydalanib, bir yillik daromad evaziga "Lasetti" avtomobili sotib olgan dehqon bilan suhbatlashdik, ish jarayonlarini suratga oldik. Qaytar chog'imizda hamkasbim suratarni elektron pochta orqali tahririyatga hoziroq yetkazish va bu qiziq lavhani bugunoq saytimizda e'lon qilish lozimligini aytdi.

- Afsuski, bu yerda internet sust ishlayapti, - dedi u.

- Bizda "Voy-pay" bor, - dedi dehqon va ko'chadan velosiped yetaklab kelgan bolaga yuzlandi: - Ulim, tez kel, amakingga "Voy-pay"ingning kodini aytl!

Taxminan 8 yashar bola yugurib kelib, salom-alikdan keyin hamkasbimning telefoniga qo'l cho'zib:

- Bering, o'zim ulab beraman, - dedi.

Biz hayron qarab turardik.

- O'g'lingiz pishiq, "Wi-Fi"ning kodini aytgisi kelmadi, shekilli, - dedim kulib.

- Yo'q, kod qiyinroq, aytib turgandan ko'ra yozib berishim osonroq, - otasining o'rniga o'g'li javob berdi va gapira turib kodni yozib, telefonni internetga ulab, qaytarib berdi-da, yugurib uyiga kirib ketdi.

- Boshida kod-pod qo'yamandim, - dedi dehqon. - Hamsoyalarning bolalari tuni bilan uyimizning orqasidan ketmaydigan bo'lib qoldi. Keyin bilsam, shu "Voy-pay"ni deb shu yerda uyimalasharkan.

- Internetdan farzandlaringiz foydalanadimi? - so'radim uning ijtimoiy tarmoqlarga qiziqishi yo'qligini sezib.

- Ha, katta ulim shu internet orqali bir toshkentlik o'qituvchidan dars oldi. Foydasi katta bo'ldi, xalqaro sertifikat bor ekan-ku, nomini aytishga tilim kemaydi. Shundan 8 ball olib, Koreyaga o'qishga ketdi. U ketgandan keyin ukalari ishlayapti. Ayasi kirib turadi. Har kuni Koreyadagi "proprocessor"imiz bilan gaplashmasa, uxlayolmaydi.

Ko'pchilik havas qilsa arziydigan bu oddiy bilan a'zolariga omad tilab, xayrlashdik. Yo'lda hamkasbim bilan ijtimoiy tarmoqning afzalliklari va bizga yetkazayotgan zararlari haqida suhbatlashib keldik.

- Eng yomon, juda ko'p soddada odamlar shu ijtimoiy tarmoqda qarmoqqa ilinib qolyapti, - dedi hamkasbim. - Turli xil o'yinlarda qatnashib, katta miqdordagi mablag'ini bo'lab beryapti.

Suhbatimizga haydovchi qo'shildi.

- Avvaliga, telegramda "Shu tugmani bos-sangiz, moddiy yordam berilayotganidan xabardor bo'lasiz", keyinchalik "Shu kanalga kirib, falonchi tanishimga ovoz bering, iltimos" va boshqa shu kabi mazmunda jo'natilgan xabarlar orqali ko'pchilik plastik kartasidagi bor mablag'idan ayrilganini aytmasizmi? Bu qarmoqqa soddada bo'lmagan, axborot texnologiyalari bo'yicha oliy ma'lumotga ega bir tanishim ham ilinib, qariyb 20 million so'mga "uxlagan".

Shaharga yaqinlashganimizda quyosh botgandi. Telefonim jiringladi.

- Allo, assalomu alaykum, ustoz!

- Va alaykum assalom, Fayozjon, yaxshimisiz?

- "Rul"da ketayotganga o'xshaysiz, maqsadga o'rman. Bugun ijodkorlar doimgi joyda uchrasharkan. Ishdan chiqarib ko'li-



sangiz, vaqtiniz bo'lsa, boring, kutamiz.

- "Rul" damasman, ammo yo'ldaman. Sizni tushundim. Albatta, boraman!

Tahririyatga borganimizda ish vaqti tugagan edi. Hamkasbim fotoapparat va boshqa uskunalarini joy-joyiga qo'ygach, uni ham ijodkorlar uchrashuviga taklif qildim. U texnik xodim bo'lsa ham she'riyatni xush ko'rardi. Rozi bo'ldi. Birga shahar chetidagi choyxonaga bordik.

Ko'pchilik kelmabdi. Yosh ijodkor Fayozjon bilan ustoz Asliddin Mustafu bor ekan. 4 kishi u yoq-bu yoqdan suhbatlashgandek bo'ldik. Oramizdagi ikki shoir bitta-bitta she'r o'qidi. Uchrashuv 3 soatga davom etdi. Bu vaqtning yarmidan ko'pi qo'l telefonimizga tikilish bilan o'tdi desam, xato bo'lmaydi.

- To'g'risi, zerikarli bo'ldi, - dedi hamkasbim choyxonadan chiqqach. - Boshqacha tasavvur qilib kelgandim uchrashuvlarimizni. Udaydam, (kasbimiz taqozosi bilan) ishdayam, ko'chadayan ijtimoiy tarmoqqa bog'lanib qolganmiz. Hech bo'lmasa, shoirlar uchrashuvida undan uzoqlasharmiz, deb o'ylagandim.

Xayrlashib, uy-uyimizga yo'l oldik. Kech bo'lib qoldi. Avtobuslar harakati to'xtagan. Bir mashina yonimga kelib to'xtadi.

- Qorasuvgacha boraman, yo'limiz bir bo'lsa, ketdik, - dedi haydovchi.

- Qorasuvga boryapman-da, qancha bo'ladi? - Ataganingizni berasiz.

Haydovchi bir qo'li bilan rulni boshqarib ketyapti, bir qo'lida telefon, kimlargadir ovozi abarlar jo'natyapti. Yo'lda ketayotganimizni, ehtiyot bo'lishini, sekinroq haydashini aytdim. "Xo'p", dedi-yu, o'z bilganidan qolmadi. Shukurki, eson-omon manzilga yetib bordik. Ataganimni berib tushdim. Yo'lovchilarga qonuniy taksi xizmati ko'rsatadigan korxonalarining biriga buyurtma qilmaganimga afsuslandim ham.

Ancha asabiylashgan holda o'zim yashaydigan ko'p qavatli uyning zinalaridan chiqib borar ekanman, ikki bola zinada yoyilib o'tirib olgan holda telefonda qandaydir o'yin o'ynayotgan ekan. Ular shunchalik o'yinga berilib ketgandan menga e'tibor qilmadi ham...

- Assalomu alaykum, - dedim baland ovozda. Bolalar yalt etib qaradi va ikkisi ham turib salom berdi.

- Uzi, - deya biri chetroqqa o'tdi.

- Tun yarimlashib qoldi, uxlamaysizlarmi, uyqularing kelmayotgan bo'lsa, kitob o'qisalaring bo'lmaydimi?! - dedim ular yonidan o'tib ketayotib. - Telefonning ko'zga zarari bor.

- Kitob ham o'qiyamiz, - dedi ulardan biri.

Kech kelgan kunlarimda bolalar uxlagan bo'lsa, bezovta qilmaslik uchun qo'ng'iroq tugmasini bosmasdan, eshikni kalit bilan ochib kiraman. Uyga kirar ekanman, bugun kun bo'yi kuzatganlarim biroz asabimni buzgan bo'lsa-da, yozadigan maqolam tayyor bo'ldi, degan xayolda edim. Ammo oxiriga yetmagan ekan. Hali ikki yoshga to'lmagan farzandim qorong'u xonada yotolib, ayasining telefonida qaysidir saytdagi multfilmni tomosha qilyapti...

To'liq SIDDIQOV.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 522 nusxada chop etildi. Buyurtma 147. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda